

Joriy ta'mirlashga oid  
SHARTNOMA № 1548

Samarqand shahar

19 oktyabr 2022 yil

ООО RUSTAM BEK BARAKA STROY keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi R.Maxammadiev nomidan, bir tomondan va Viloyat yukumli kasalliklar klinik shifoxonasi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi raxbar A.I.Boymirzaev nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### I. SHARTNOMA PREDMETI

- Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga Viloyat yukumli kasalliklar klinik shifoxonasi labaratoriya bo'limini joriy ta'mirlash (keyingi o'rinlarda - "Ishlar" deb yuritiladi) ishlarini bajarish, "Buyurtmachi" ushbu "Ishlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- "Ishlar"ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek ularni ko'rsatish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltiriladi.

№	Ishning nomi	Boshlang'i ch narxi	shartnoma summasi	Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)		SHartnomaning umumiyligi (bitim summasi) QQS bilan
				foizi	summasi	
1	<u>Viloyat yukumli kasalliklar klinik shifoxonasi labaratoriya bo'limini joriy ta'mirlash</u>	298 782 774.0	256 693 374	15	38 504 006	295 197 380
	Jami :					295 197 380

1.2. SHartnomaning umumiyligi summasi QQS bilan 295 197 380 so'mni tashkil qiladi.

### II. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. "Buyurtmachi" ning huquqlari:

- "Bajaruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;
- "Bajaruvchi" dan "Ishlar" "Buyurtmachi" ning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;
- "Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq, bajariladigan «Ishlar» ni nukson dalolatnomasiga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Ishlar" ko'rsatilishini talab qilish;
- Zarur sifatga ega bo'lmanagan "Ishlar" ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:
  - zarur sifatga ega bo'lmanagan "Ishlar" shunga o'xshash "Ishlar" bilan almashtirilishini;
  - "Ishlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;
  - bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;
- SHartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatları:

- O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan "Ishlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

- Ko'rsatilgan "Ishlar" uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;

2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan "Ishlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.

2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

2.4.1. "Buyurtmachi"ga "Ishlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;

2.4.2. Agar "Ishlar"ni bajarish jarayonida "Bajaruvchi" shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, "Buyurtmachi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 5 kun muddatda tekin ta'mirlab berish.

### III. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Mazkur shartnomaning bahosi QQS bilan 295 197 380 so'mni tashkil etadi. Bajariladigan "Ishlar"ning bahosi mazkur shartnomaga ilovada ko'rsatilgan.

3.2. Ko'rsatilgan "Ishlar" uchun pul ko'chirish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

3.3. "Buyurtmachi" mazkur kontraktni G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq kontrakt umumiy summasidan 30% miqdorida oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70 % ni bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnama imzolangandan so'ng 10 bank ish kuni ichida qabul qilish dalolatnomasi, hisob-fakturna v.b. asosida to'laydi.

### IV. SHARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. SHartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi

kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. SHartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. "Ishlar" qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan "Ishlar"ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.5. Nazarda tutilgan xajmdan ortiqcha bir nomda "Ishlar" ko'rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdag'i ko'rsatilmagan "Ishlar" o'rmini to'ldirish sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Ishlar"ning o'rni to'ldirilishi kerak, bunday "Ishlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Bajarilgan "Ishlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnama bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada bajarilgan "Ishlar" xajmi, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.7. SHartnomada nazarda tutilgan "Ishlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasida ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarining buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi. Buyurtmanoma "Ishlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish mo'ljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmanomi chopar orqali qabul qilishda "Bajaruvchi"ning xodimi "Buyurtmachi"da qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yadi.

4.8. "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Ishlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

### V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Bajarilayotgan "Ishlar" sifati, xajmi "Bajaruvchi" tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" bajarilayotgan "Ishlar"ning sifatini, shuningdek ularning xajmini hisobga olgan holda qayta hisob-

bajarilayotgan "Ishlar"ning sifatini, shuningdek ularning xajmini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari buyurtmachiga noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.2. Agar bajarilgan "Ishlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'limgan "Ishlar" qiyamatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.3. "Ishlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bo'lgan "Ishlar"ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga "Ishlar" bajrilmasligi natijasida etkazilgan zararni to'laydi.

5.4. Ishlar bajarish kechiktirilgan yoki to'liq bajarilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan "Ishlar" qiyamatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Ishlar" bajarish muddati kechiktirilishi yoki to'liq bajarilmasligi tufayli etkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.5. Bajarilgan "Ishlar" uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida maxsus hisobraqamidan penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.6. "Buyurtmachi" tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning xattiharakatlari (harakatsizligi) "Buyurtmachi" tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha shartnoma majburiyatlar bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi. "Bajaruvchi"ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining "Buyurtmachi" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida etkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.

5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

5.8. Nazorat organlari tomonidan utkazilgan tekshirish davomida bajarilgan ishlar va tovar maxsulotlar narxi yukori deb topilgan takdirda urtadagi fark «Ishlar» bajaruvchi tomonidan koplanadi

## VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir

## VII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Mazkur shartnoma **13** oktyabr 2022 y. Tugashi: "31" dekabrgacha 2022 y. amalda bo'ladi.

7.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

## VIII. SHARTNOMANING QONUNIY KUCHGA KIRISHI

8.1 SHartnomani taraflarning uzaro kelishuviga asosan yoki Uzbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga xamda amaldagi konun xujjalari normalariga binoan keltirilgan zararni tulagan xolda muddatidan ilgari bekor kilishi mumkin.

8.2 SHartnoma taraflar tomonidan imzolangan kundan sung konuniy kuchga kiradi.

## IX. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

9.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

9.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. SHartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

9.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

#### X. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

11. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

12. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

13. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdaagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdag'i harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalg qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

14. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zlarining ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali)sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi: a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tusdag'i ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga; b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish, yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligin yashirishga; v) korrupsiyaga oid huquqbazarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.


15. Taraflar tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyutorlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarlarga) nisbatan quyidaagi harakatlarni amalga oshirishlari shart: - korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasisligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish; - ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik; - ularni faqat taraflarning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalg qilish; - ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmslik.

16. Taraflar ularning nazorati ostida bo‘lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo‘sishimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o’tkazilmasligini kafolatlaydilar.


17. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo‘sishimcha shartlarning 7.4- va 7.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi ma’lum bo‘lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko‘rilihini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo‘yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo‘yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko‘rilmagan yoki ko‘rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf zararni to‘liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## XI. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

Etkazib beruvchi
Ташкилот номи : “ <b>RUSTAM BEK BARAKA STROY” МЧЖ</b>
Манзил: Пайариқ тумани Кўтирибулок қишлоғи
Телефон: +99893 994-66-76
Факс:
СТИР коди: 306633932
X/P 2020 8000 1051 1016 4001
Банк номи: ТИФ миллий банк Самарқанд бўлими
МФО: 00278 Баҳор (директор)  <b>RUSTAM BEK BARAKA STROY</b> P.Makhmadiyev

Buyurtmachi
Viloyat yukumli kasalliklar klinik shifoxonasi bo‘limi Manzil: Samarqand shahar Dahbed ko‘chasi Tel: (+99866) 235-10-92 sh/h* 400321860184017073201054018 byudjetdan mablag‘ oluvchi STIR 201007925 OKED 86100 G‘aznachilik bo‘linmasi nomi: Samarqand viloyat g‘aznachilik boshqarmasi G‘azna h/v 20402000300100001010 Bankning nomi XKKM MB Toshkent shaxar BB MFO 00014 g‘aznachilik bulinmasi STIRi 201122019
Rahbar:  A.I.Boymirzaev M.O.:  Kimzo (F.I.SH)

Юримен:





Вилоят Юқумли касалликлар клиник шифохонаси учун Лаборатория бўлимини  
жорий таъмирлаш бўйича доимий ишловчи танлов (тендер) Комиссия йиғилиши

БАЁНИ №

Самарканд шаҳри

2022 ийл “10” октабр

Раислик килувчи  
Иштирок этдилар  
Дорихона мудири  
Бош ҳамшира  
Касаба уюшма раиси  
Хужалик мудири  
Врач инфекционист

Хамдамов Х.И  
Комиссия аъзолари (рўйхат бўйича)  
Ф.А.Палвонова  
С.Мардонова  
Абдурахмонов К.Х  
Маркаев С.Н  
Аманова Д.А

#### КУН ТАРТИБИ:

Шифохона учун лаборатория бўлимини жорий таъмирлаш тўғрисида.  
Шифохона томонидан 2022-йил 4-октябрда Ўзбекистон Республикаси товар хом ашё<sup>и</sup>  
биржасининг электрон порталига вилоят юқумли касалликлар клиник шифохасининг  
тендер шартлари асосида курилиш хизмати 154898-лот раками билан эълонга  
жойлаштирилди.


Мазкур лот бўйича 2022-йил 4-октябрда энг яхши таклифларни танлаш савдосини  
утказиш бўйича давлат харидлари комиссиясининг электрон портали оркали шаклланган  
“Тендер шартлари асосида курилиш хизмати бўйича” баённомасига асосан эълон якунига  
кура Комиссия аъзолари томонидан “RUSTAMBEK BARAKA STROY” масъулияти  
чекланган жамияти ғолиб деб топилганлигини инобатга олиб:

#### ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 29-июльдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги  
684-сонли Конунининг 62-моддаси 3-бандига асосан комиссия баённомаси давлат  
харидлари электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.  
Икки иш купи давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома  
бўйича хеч кандай эътиrozлар ёки кушимча таклифлар келиб тушмаганлиги маълумот  
учун кабул килинсин.

2. Вилоят юкумли касалликлар клиник шифохонаси бош бухгалтери Ш.А.Жумаевга:  
Юкоридагилардан келиб чиккан холда комиссия аъзоларининг 2022 йил 4-октябрда  
электрон баённомасига асосан голиб "RUSTAMBEK BARAKA STROY" масъулияти  
чекланган жамияти билан конунчиликда ўриатилган тартибда шартнома тузилсин.

Раислик қилувчи  
Иштирок этдилар  
Дорихона мудири  
Бош ҳамшира  
Касаба уюшма раиси  
Хужалик мудири  
Врач инфекционист

  
Хамдамов Х.И

Комиссия аъзолари (рўйхат бўйича)

  
Ф.А.Палвонова

  
С.Мардонова

  
Абдурахмонов К.Х

  
Маркаев С.Н

  
Аманова Д.А

**Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 154898 на  
приобретение Услуга по текущему ремонту зданий**

Способ проведения электронный

Дата 04.10.2022

Время рассмотрения 04.10.2022 11:07

Закупочная комиссия Вилоят юкумли касалликлар клиник шифохонаси, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	ХАМДАМОВ ХАСАН ИСКАНДАРОВИЧ	Зам гл.врач	ВЮККШ
<b>Секретарь комиссии</b>	AMANOVA DILFUZA RAXMATOVNA	Врач инфекционист	ВЮККШ
<b>Член комиссии</b>	POLYONOVA FLORA ABDUMURATOVNA	Зав аптекр	ВЮККШ
<b>Член комиссии</b>	MARDONOVA SOXIBA MAMARAXIMOVNA	Бош хамшира	ВЮККШ
<b>Член комиссии</b>	ABDURAXMONOV KOMIL XAMRAKULOVICH	Касаба уюшмаси раиси	ВЮККШ
<b>Член комиссии</b>	MARKAYEV SOBIR NURMUHAMMEDOVICH	Хужалик мудири	ВЮККШ

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 04.10.2022 года № лота 154898.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 20

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту зданий
Подробное описание	услуга по текущему ремонту зданий
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	298 782 774.00
Стартовая сумма	298 782 774.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Ташкилот гувохномаси, НДС гувохномаси, Рахбар паспорт купияси, Ташкилотнинг балансида булган омборхона түгрисида малумот ёки ижара шартномаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилот гувохномаси, НДС гувохномаси, Рахбар паспорт купияси, Ташкилотнинг балансида булган омборхона түгрисида малумот ёки ижара шартномаси

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО RUSTAM BEK BARAKA STROY	20	маълумот тақдим	20	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		килинган				
DIAMAND BUILDER MCHJ	20	мавжуд. тақдим килинмоқда	15	Экспертная		
SAM-BUSEFFAL MCHJ	20	10	20	Экспертная		

Критерий №2 Катнашчиларнинг Худудий давлат солик оргонлари томонида берилган маълумотнома соликдан карздорлиги йуклиги тугрисида ва хисоботлар тугрисида маълумотнома.

Тип: Текстовое значение

Описание: Катнашчиларнинг Худудий давлат солик оргонлари томонида берилган маълумотнома соликдан карздорлиги йуклиги тугрисида ва хисоботлар тугрисида маълумотнома.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО RUSTAM BEK BARAKA STROY	20	маълумот биринчирилган	20	Экспертная		
DIAMAND BUILDER MCHJ	20	мавжуд маълумотнома тақдим килинмоқда	15	Экспертная		
SAM-BUSEFFAL MCHJ	20	20	20	Экспертная		

Критерий №3 Бажарувчи ташкилод балансида курилиш лойихаси буйича 50% пул айланмаси буйича банқдан малумот нома ва курилиш тамирлаш ишларини тугатиш вахтини белгиловчи малумотнома тақдим килиниши шарт.

Тип: Текстовое значение

Описание: Бажарувчи ташкилод балансида курилиш лойихаси буйича 50% пул айланмаси буйича банқдан малумот нома ва курилиш тамирлаш ишларини тугатиш вахтини белгиловчи малумотнома тақдим килиниши шарт.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО RUSTAM BEK BARAKA STROY	20	маълумот биринчирилган	20	Экспертная		
DIAMAND BUILDER MCHJ	20	мавжуд тақдим килинади	15	Экспертная		
SAM-BUSEFFAL MCHJ	20	20	15	Экспертная		

Критерий №4 Курувчи ташкилотнинг ишчилар сони 15 та дан кам булмаган микдорда Худудий Давлат Соиқ инспексиясидан тасдиқланган холда ва Курувчи мухандиси олий малумотга эгалиги тугрисида диплом маълумотлари тасдиқланган холда

Тип: Текстовое значение

Описание: Курувчи ташкилотнинг ишчилар сони 15 та дан кам булмаган микдорда Худудий Давлат Соиқ инспексиясидан тасдиқланган холда ва Курувчи мухандиси олий малумотга эгалиги тугрисида диплом маълумотлари тасдиқланган холда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО RUSTAM BEK BARAKA STROY	20	маълумот бириктирилган	20	Экспертная		
DIAMAND BUILDER MCHJ	20	Мавжуд тақдим килинмокда	15	Экспертная		
SAM-BUSEFFAL MCHJ	20	20	20	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО RUSTAM BEK BARAKA STROY	298 782 774.00	295 197 380.00 UZS	295 197 380.00	00.00	295 197 380.00	29.09.2022 11:03:30	9.7166
SAM-BUSEFFAL MCHJ	298 782 774.00	286 831 463.00 UZS	286 831 463.00	00.00	286 831 463.00	03.10.2022 09:56:01	10
DIAMAND BUILDER MCHJ	298 782 774.00	298 782 774.00 UZS	298 782 774.00	00.00	298 782 774.00	30.09.2022 10:22:51	9.6

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО RUSTAM BEK BARAKA STROY	90	9.7166	99.7166
SAM-BUSEFFAL MCHJ	84.375	10	94.375
DIAMAND BUILDER MCHJ	67.5	9.6	77.1

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 154898 от 04.10.2022 года на приобретение Услуга по текущему ремонту зданий определила победителем:

ООО RUSTAM BEK BARAKA STROY  
306633932

и резервный исполнитель: SAM-BUSEFFAL MCHJ (309531528)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	ХАМДАМОВ ХАСАН ИСКАНДАРОВИЧ	Согласен	
Член комиссии	POLVONOVA FLORA ABDUMURATOVNA	Согласен	
Член комиссии	MARDONOVA SOXIBA MAMARAXIMOVNA	Согласен	
Член комиссии	ABDURAXMONOV KOMIL	Согласен	

	XAMRAKULOVICH		
Член комиссии	MARKAYEV SOBIR NURMUHAMMEDOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

2351720



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"RUSTAM BEK BARAKA STROY" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'lq nomi)

**"RUSTAM BEK BARAKA STROY" MChJ**

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

09.08.2019

750959

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR):

306633932

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Samarqand viloyati, Payariq tumani, Birlashgan, Qo'tirbulloq,

Guvochnoma:

Samarqand viloyati, Payariq tumani, DAVLAT XIZMATLARI tomonidan  
MARKAZI berilgan

(Ro'yxaldan o'tkazuvchi organning to'lq nomi):





**Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"SAM-BUSEFFAL" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektlining tashkiliy-huquqiy shakli ko'satilgan holdagi to'liq nomi)

**"SAM-BUSEFFAL" MChJ**

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

10.05.2022

1134810

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR):

309531528

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Birdamlik MFI, mahalija  
Гармако кучаси, 71-уй,

Guvochnoma:

Samarqand viloyati, Samarqand shahri, DAVLAT  
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxaldan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

